



TIL VA ADABIYOT TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUV ZAMONAVIY O'QUV MASHG'ULOTINI TASHKIL QILISHNING AYRIM JIHATLARI

Tajiyev M.,

*Renessans ta'lim universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932798>

Kirish: Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sohasining boshlang'ich asosi o'quv mashg'uloti hisoblanadi. Hozirgi paytda pedagogikada zamonaviy dars yoki o'quv mashg'uloti tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda. Zamonaviy o'quv mashg'uloti, o'zi qanday dars? degan savol tug'ilishi tabiiy. O'quv mashg'uloti – oliy ta'limda ta'limning asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi, u doimiy talabalar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan didaktik tadbir bo'lib, ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya, mustaqil ish va mustaqil ta'lim kabilardan iborat bo'ladi.

Zamonaviy o'quv mashg'uloti – ta'lim beruvchi talabaning mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy potensialini ishga solib, rivojlanishini ta'minlaydi, talaba esa o'z navbatida bilimlarni chuqur o'zlashtiradi va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishish va komillikga intiladi.

Asosiy qism. Ta'lim–tarbiya jarayonini sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq. Bu o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchi vositalardir. Ba'zi hollarda talaba uchun mo'ljallangan ta'lim vositasi o'qituvchi uchun ham talab etiladi. Tanlab olingan usul, shakl va vositalar bir-birini to'ldirishi lozim. Ta'lim vositalari xususiyatlariga ko'ra bosma, texnik va real turlariga ajratiladi, bular o'z navbatida olti turga bo'linadi. Ma'lumot olish va ularni qayta ishlash uchun – matnli (o'quv dastur, maxsus darslik, ma'ruza matn, tarqatma material hamda nazorat varaqalari); umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun – tasvirli (fotosurat, chizma sxema, jadval, plakat hamda tasvirlar); jarayonlar to'g'risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga keltirish uchun – audiovizual (videofilm, kompakt-disk, audio kasseta, Power Point materiallari, elektron darsliklar); tasvir va matnni yozish, saqlash uchun – yordamchi (doska, pinbord doskasi, videoproyektor ekrani bilan, kompyuter, flipchart, videomagnitofon, televizorlar); o'rganilayotgan obyektning modeli orqali u haqida tasavvur hosil qilish uchun – modeli (model, maket, trenajer, mulyajlar); o'rganilayotgan obyektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish uchun asbob uskuna, stanok, yarim tayyor va



tayyor mahsulotlar hamda xom ashyolardan foydalanish mumkin. Nazariy darslarda ta'lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, amaliy mashg'ulotlarda esa ko'proq tasvirli va real vositalardan foydalaniladi.

Zamonaviy o'quv mashg'ulotini tashil etishning asosiy mezonlari: o'quv mashg'uloti-talaba shaxsiga yo'naltirilgan, pedagog va talabaning o'zaro faol munosabatlariga asoslangan bo'ladi; o'quv mashg'uloti jarayoni tabaqalashtirish va shaxsiy qobiliyatlariga yondashuv asosida amalga oshiriladi; o'quv mashg'uloti talabaning yuqori darajadagi qiziqishi, xohishlari, aqliy faolligi, muvaffaqiyatga erishuviga qaratiladi; o'quv mashg'uloti o'quv materialini mazmuniga ko'ra turli uslublar, vositalarga suyanadi; o'quv mashg'ulotida talabaning aqliy faoliyatini faollashtirishga e'tibor qaratiladi; o'quv mashg'ulotida talaba shaxsiyatini rivojlantirishga, birinchi navbatda, talabaning o'zini-o'zi boshqara olishiga qaratilgan mexanizm to'liq ishga solinib, shu orqali uning bilimga bo'lgan qiziqish va xohishi ortadi; o'quv mashg'uloti sifati va samaradorligini ta'min etuvchi nazorat turlaridan foydalaniladi; o'quv mashg'uloti vaqtidan unumli va maqsadli foydalaniladi; o'quv materialini osonlik bilan yenga olishga e'tibor qaratiladi; o'quv mashg'ulotida nazariya va amaliyot o'zaro bog'lanishda talqin etiladi.

Zamonaviy o'quv mashg'ulotini belgilari: o'quv mashg'ulotiga tizimli yondashuv-talabaning pog'onama-pog'ona rivojlanishi hamda to'liq o'zlashtirib olishini ta'minlaydi; o'quv mashg'uloti jamiyatning sotsial buyurtmasini bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi; pedagog va talabaning pedagogik faoliyati pedagogika hamda psixologiyaning eng so'nggi yutuqlari asosida tashkil etilishi ta'minlanadi; o'quv mashg'uloti jarayonida talabaning qiziqishi asosida ta'limning rivojlanish vazifalari hal etib boriladi; talabaning bilim olish, tashabbuskorlik, ijodkorliklari tarkib topshiriladi; ta'lim mazmuni optimallashtiriladi; o'quv mashg'uloti tuzilmasi takomillashtirilgan bo'ladi; o'quv maqsadlari aniq, o'quv jarayoni rang-barang bo'ladi; o'quv mashg'uloti yuqori saviyada kuchli emotsional holatda o'tadi; o'quv mashg'ulotida o'zaro aloqalar jadval bilan o'rnatiladi.

Zamonaviy o'quv mashg'uloti tashkil qilishda foydalaniladigan o'quv vositalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: pedagogik texnologiyani joriy etish bo'yicha tashkiliy vositalar; o'quv texnologiyalari, o'quv-metodik materiallar; didaktik materiallar; axborot, axborot-kommunikatsiya o'quv texnologiyalari; texnik o'quv vositalari.

Zamonaviy o'quv mashg'uloti tashkil qilishda tashkiliy vositalarga quyidagi hujjatlarni kiritish mumkin: birinchi kurs talabasi uchun esdalik qo'llanma; reyting tizimi to'g'risida Nizom; talabalar safidan chiqarish va ko'chirish to'g'risida Nizom; OO'MTVning pedagogik texnologiyani ta'lim joriy etish to'g'risidagi buyruqlari.



O'qitish texnologiyalariga quyidagilarni kiritamiz: fanlarini o'qitish nazariyasi va metodikasi bo'yicha materiallar; ta'lim yo'nalishining Davlat ta'lim standarti; o'quv reja va fan dasturlari; ishchi o'quv reja va ishchi fan dasturlari; matematika fanlarini o'qitishning metodik sistemalari; fanlarning o'quv-uslubiy majmualari; talaba mustaqil ishi va mustaqil ta'lim dasturi hamda mazmuni; o'qituvchi rahbarligida talaba mustaqil ishini tashkillashtirish rejasi va ko'rsatmalar; reyting nazorati vazifalari yoki masalalari hamda testlari; amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv mashg'ulotlari loyihalari, ma'ruza konspektlari, tavsiyanomalar va mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatmalar; elektron darsliklar.

Didaktik materiallar: yetakchi faylasuflar, pedagoglar va psixologlar tomonidan ifodalangan, ta'riflangan va shakllantirilgan klassik didaktik tamoyillar; o'qitish texnologiyasida dolzarb bo'lgan maxsus metodologik tamoyillar; talabani o'qitishga yoki o'rganishiga yo'naltirilgan ilmiy tamoyillar.

Axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga quyidagilarni kiritamiz: axborot olish bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar; ko'rgazmali qo'llanma, namoyish etiluvchi o'quv materiallari; kompyuter va boshqa texnik vositalardan foydalanish; internet.

Texnik o'quv vositalari bu: kompyuterlar; boshqa texnik vositalar (interfaol yozuv taxtalari; ko'paytiruvchi texnika va b.).

Axborot va texnik o'quv vositalaridan foydalanishdagi jadal ilgari siljishlar quyidagi rivojlanib borayotgan muammolarni namoyon qildi:

- o'quv jarayonining axborotlashuvi va kompyuterlashtirilishining tobora kengayib borayotganligi, uning sifatini nazorat qilish shakllarining rivojlanib borishi;
- o'quv va o'qitish texnologiyasidagi o'zgarishlar;
- kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayonidagi axborot ta'minotiga ta'siri.

Shunga ko'ra, qayd etamizki, axborot texnologiyalari barcha zaruriy komponentlarni o'z ichiga oluvchi axborot vositalarisiz rivojlana olmaydi. Bu komponentlar – bilimlar bazasi, axborot resurslari, rivojlangan axborot kommunikatsiyalari va axborot servisi tizimi, kompyuterlar va dasturiy ta'minot, eng asosiysi informatika, axborot texnologiyalari va muhandisligi bilimlari va sohalari mutaxassislarining mavjudligidir. Shuning uchun tegishli o'quv axborot-ta'lim muhitining shakllanishi muhim rol o'ynaydi, bu esa butun ta'lim tizimining eng zaruriy elementi bo'lib hisoblanadi. O'quvni individuallashtirmasdan, har bir talaba uchun individual ta'lim dasturini yaratmasdan turib uzluksiz ta'limni amalga oshirish mumkin emas. Bu nafaqat o'quv rejalarini, dasturlarni, ta'lim jarayonini tashkillashtirish tamoyillarini ishlab chiqishda yangicha yondashuvlarni, yangicha



o'quv va o'qitish usullaridan foydalanishni va balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'limga keng joriy etilishini ham talab etadi.

O'quv faoliyatining yangicha turlariga yo'naltirilgan ko'pgina yangicha o'quv usullari va tashkillashtirish shakllari, erishilgan yangi ta'lim natijalari (roli o'yinlar, o'quv va o'rganishga oid loyihalashtirishlar, moduli o'quv tizimi va b.lar) mavjud bo'lib, ularning samaradorligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanilganda sezilarli darajada oshishi mumkinligiga guvoh bo'lamiz. Demak, ular fanlari o'qituvchilarining kasbiy faoliyat qurollari majmuiga kiritilishi zarur.

Quyidagi vositalarni qo'llamasdan turib ta'lim faoliyatini o'quv jarayonining intensivlashtirish va optimallashtirishini ta'minlovchi, sifat jihatidan yangi, innovatsion darajalarga olib chiqish mumkin emas:

- o'quv faoliyatini individual va jamoaviy tashkillashtirilishini birlashtirilishiga tayanuvchi (asoslanuvchi) masofaviy o'quv texnologiyalari (keys, Web-o'quv uslubi, elektron pochta, videokonferensiya va b.lar);

- kompyuterli, apparati (raqamli foto va video – kameralar, skanerlar, media-proyektorlar, axborotlarni qabul qilish va vizuallashtirish uchun mo'ljallangan barcha uskunalarni tezkor kommunikatsiyalar vositalari va h.k.) va dasturiy vositalar;

- axborot texnologiyalarining sintezlanishiga asoslanuvchi o'quv elektron nashrlar va resurslar (multimediyali namoyishlari (prezentatsiyalar), elektron darsliklar, ta'lim muassasasining Web-resurslari va h.k.);

- zamonaviy kompyuterli va interfaol proyeksiyalovchi texnikalar (interfaol yozuv taxtasi, pol-ekran pedagogik texnologiya, videokonferensiyalar uchun mo'ljallangan texnikalar va h.k.).

Xulosa: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quv usullari, tashkillashtirish shakllari va vositalarini integratsiyalashda yetakchi rol o'ynashi mumkin, ularning ta'limga joriy etilishi esa – ta'limni modernizatsiyalashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Elektron darsliklar, yangicha axborot, informatsion o'quv muhiti, o'quv telekonferensiyalar va boshqa resurslar, Internet – bularning barchasi yangi turdagi mustaqil o'quv faoliyatini tashkillashtirish va amalga oshirish vositalaridir. Aslida esa talabalarning mustaqil o'quv faoliyatiga, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yangicha o'quv va o'qitish muhitini yaratish zarur.

Ta'lim–tarbiya jarayonini sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan o'qitishning shakli va ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori.
2. Tojiyev M. O'qituvchi faoliyatini loyihalash: Uzluksiz ta'limda modulli texnologiya // Monografiya / M.Tojiyev, B.Ziyomuxamedov, B.Sh.Usmonov, A.J.Xurramov. Mas'ul muharrir: fizika-matematika fanlari doktori Qodirov M.Q.; pedagogika fanlari nomzodi, dotsent M.Barakayevning umumiy tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi. – T.: "TURON-IQBOL", 2017. – 246 b.
3. O'rinov V.K., Umarov A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim Muassasalarida ECTS Kredit-Modul Tizimi: Asosiy Tushunchalar va Qoidalar. //El-yurt umidi jamg'armasi va Respublika Oliy Ta'lim Kengashi. – T.: 2020. – 64 b.